

ISLOMDA ILM HAQIDAGI HADIS VA OYATLAR

Komilova Mukarram Kobiljonovna

*Samarqand iqtisodiyot va servis instituti katta o'qituvchisi
komilova.mukarram29@gmail.com*

Mirzarahimov Sanjarbek G'ulomjon o'gli

SamISI talabasi

Annotatsiya: *Maqolada Muhammad payg'ambar o'zlarining hayotlik chog'larida hadis va oyatlarni o'z sahobalariga amaliy namuna sifatida yoritib berganlar Shu jumladan ilm olishni qattiq targ'ib qilib uni insonlar orasida keng yoyishga harakat qilganlar*

Kalit so'zlar: *Hadis, oyat, Muhammad payg'ambar, Sahobalar, ilm - bilim, saodat asri*

Аннотация: *В данной статье говорится о том, что еще при жизни Пророк Мухаммад просвещал своих сподвижников хадисами и стихами в качестве практического примера. А также активно пропагандировал обучение и пытался широко его распространить среди людей.*

Ключевые слова: *Хадис, аят, Пророк Мухаммад, сподвижники, знания, возраст счастья*

O'tgan asrda Yevropalik bir qancha olimlar tamonidan islom dini qattiq qoralanib, ilmdan qaytaradi degan fikrlarni ilgari surishgani hammamizga ma'lum va mashhurdir. Mustamlakachilik davrida ham yurtimizdan yetishib chiqqan buyuk mutaffakirlar kallakesar, zolim va yana bir qancha shunga o'xshash nomlar ostida talqin qilinib bularning hammasi xalqimiz orasida islomiy mafkurani uzil kesil to'xtatishga qaratilgan harakatlar edi. Agar tarixga nazar soladigan bo'lsak o'rta asrlarda Yevropada cherkov ma'muriyati ilmi kishlarni qattiq tanqid qilib hatto o'lim hukmiga mahkum qilishdan ham qaytishmadi. Ilm talabidagi kishilarni cherkovning dushmani deb qaralib ommadan aloqasini uzishdi, agar chin qalbdan tavba qilishsa shartli ravishda ularni qisman kechirishdi.

Islom dinida ilm juda katta ahamiyat kasb etadi u hoh diniy bo'lsin hoh dunyoviy bularning hammasi yuqori darajada qadrlanadi. Islom o'z tarafdorlariga bilim olishni, o'rganishni ya'ni tadqiq qilishni targ'ib qiladi. Isbot tariqasida shuni takidlash lozimki payg'ambar Muhammad sollallohu alayhi vasallamga birinchi nozil bo'lgan IQRO suraning bosh oyatlarida ham islomning bilim olishga bo'lgan urg'usini aks ettiradi. Jumladan juda ko'p hadislarda ham ta'lim tarbiya ilm olishning ahamiyati haqida gap boradi. Muhammad s.a.v dan rivoyat qilingan eng mashhur hadislardan birida " Ilm olish har bir musulmon erkak va ayolga farz qilingan " ligi aytilgan. Shundan ko'rinib turibdiki ushbu hadisda faqat diniy ilm haqida gap ketmayapti dunyoviy ilmni yoki diniymi farqi yo'q. Islom bilim olishni faqatgina diniy ilmlar olish bilan cheklamaydi,

balki ilmiy va amaliy bilimlarni ham o'z ichiga oladi. Misol tariqasida tarixda yurtimizdan yetishib chiqqan ulamolar hamda boshqa islom olimlari fan, tibbiyot, matematika, astronomiya kabi bir qancha fanlar rivoji uchun ulkan hissa qo'shganlar.

Islom mafkurasida bilim olish faqat bir kishining manfaati uchun emas, balki jamiyat va insoniyat uchun ham foyda keltiradigan omil sifatida qaraladi. Ilm tahlil qilish va uni yoyish dinimizning asosiy tamoyillaridan biri hisoblanadi. Payg'ambarimiz rivoyat qilgan bir hadisda " sizlarning eng yaxshilaringiz ilm olib, uni boshqalarga ulashadiganingizdir " deb takidlaganlar. Bu ko'rsatmalarni hozirgi zamon talabi bilan mostlashtirsak juda ham katta natijalarga erishishimiz turgan gap. Marifat asrlarida yurtimizdan chiqqan va yana bir qancha islom ulamolari dunyo, fan va kelajak ravnaqi uchun aql bovar qilmas darajada ulkan hissa qo'shdilar, o'sha kezlarda yashagan ba'zi insofli G'arblik olimlar islom olamini madrasaga o'xshatgan ulardan biri ta'kidlaganidek " bu dinga e'tiqod qiluvchilar huddi madrasaga qatnayotgan talabalarga o'xshaydi" deb bejizga aytmagan.

Ilm olish ma'naviyatga juda ko'p ijobiy oqibatlarni vujudga keltiradi. Jumladan diniy va dunyoviy bilimlar insonning tafakkur doirasini kengaytiradi, dunyoqarashlarini rivojlantiradi shu orqali inson o'zining hayotini kengroq saviyadan baholay oladi. Bilim olish insonlarni o'zlari ustida ishlashga va o'z kamchiliklarini tuzatishga undaydi, natijada ma'naviyat yuksaladi va shaxsiy o'sish kuztiladi. Ilm odamlar o'rtasida muloqot va o'zaro tushunishni rivojlantiradi, do'stlik va hamjamiyatlik ruhida tarbiyalaydi. Bundan tashqari, ilm olish orqali inson o'z oilasi va jamiyatdagilar uchun foydali bo'lgan amaliy bilim va ko'nikmalarni rivojlantira oladi, bu esa ularning jamiyatdagi hissalarini oshiradi va ularga foyda keltiradigan asosiy ma'naviy baza sifatida xizmat qiladi.

Zayd ibn Sobit roziyallohu anhudan rivoyat qilingan hadisda: Bir kuni Payg'ambar alayhissalom meni huzurlariga chaqirtirib – yaxudiy tilini bilasanmi deb savol berdi – men esa yo'q deya javob qildim, shunda ul zot bu tilni o'rganishimni buyurdilar. (Imom buxoriy rivoyati) Zayd ibn Sobit bu tilni o'n olti kunda o'rganganligi haqida ham ma'lumotlar bor. Bu zoti bobarakotning xorijiy tilga ehtiyoji shundan iborat bo'lgan ekanki, o'sha kezlarda yaxudiyalar orasidan juda ko'p maktublar kelayotgan bo'lib ularni tushinish mushkilot tug'dirgan ekanlar.

Yuqoridagi hadisdan ko'rinib turibdiki hatto dunyolarga rahmat qilib yuborilgan zotning o'zi ham, xorijiy tilga ehtiyojni sezganlari ko'rinib turibdi. Bugungi kunda vaqtni umrni behuda amallarga sarflash oddiy hol bo'lib qolgani hech kimga sir emas. "falon joyda yangi oshxona ochilibdi yoki bo'lmasa falon o'yin yangi chiqibdi" deyilsa, vaqtni isrof qilayotganiga parvo ham qilmay yangi oshxona sari o'tlanadiganlar ham kam emas oramizda. Aslida inon yeyish uchun yashashi emas, balki yashashi uchun yeyish kerak meni fikrimcha. Shu sababdan bu davrda yashayotgan kishi ma'lum bir ilm yoki qobilyat bilan cheklanib qolishi mumkin emas, bir qancha ulamolar ta'kidlaganidek " o'tmish o'tib ketar, kelajak orzu – turgan shu oningga qilaver ruju" bu

iborada har bir soniyamizni g'animat bilib o'qib o'rganmog'imiz, hayotni tatbiq qilmog'imiz zarurligi aytilmoqda. Bu amallarni faqat o'zimizning ehtiyojimiz uchun emas balki jamiyat va insoniyat uchun deb harakat qilsak, ko'zlagan maqsadimizdan ham yuqori darajaga erishishimiz tabiiy hol.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. “ IYMON” kitobi Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. 2023
2. “ ILM OLISH SIRLARI “ Imom Zarjuniy. 2021
3. “ ULAMOLAR NAZDIDA VAQTING QADRI “ Abdul Fattox Abu G'udda. 2018
4. “ Hadis va Hayot “ 1-6 juzlar Shayx Muhammad Yusuf Muhammad Sodiq. 2022 - 2021
5. Mukarram K. Issues Of The Social Significance Of Education In Uzbekistan //Ta'lim Va Rivojlanish Tahlili Onlayn Ilmiy Jurnali. – 2022. – C. 25-27.
6. Kobiljonovna K. M. et al. METHODOLOGICAL PRINCIPLES OF MODERN METHODS OF TEACHING THE RUSSIAN LANGUAGE //E Conference Zone. – 2024. – C. 10-14.
7. Komilova M. K. Facilitating interactive language learning in groups with non-russian language of study //Journal of Advanced Research in Dynamical and Control Systems. – 2020. – T. 12. – №. 6. – C. 1065-1068.